

ROSSIYA IMPERIYASI TOMONIDAN QOZOQ YERLARINING EGALLANISHI TARIXI (QOZOG‘ISTON TADQIQOTCHILARINING ASARLARI MISOLIDA)

	<p style="text-align: center;">Baxtiyorov Behruz Bobirovich <i>Buxoro davlat universiteti Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası o‘qituvchisi</i></p>
--	--

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr o‘rtalarida Rossiya imperiyasining Qozoq jung‘orlari o‘lkasida amalga oshirgan bosqinchilik harakatlari hamda o‘lkadagi mustamlakachilik siyosati mahalliy tarixchilar nigohida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Kichik Juz, Katta Juz, O‘rta Juz, gubernator, okrug mahkamalari, biylar va oqsoqollar, kollektivlashtirish.

Qozog‘istonda yangi davr tarixnavisligi ilmiy maktablarining tashkil topishi, Oktabr «inqilobi»dan (1917 y.) keyingi davrga to‘g‘ri keladi. Zero, shu davrda mahalliy tarixchi kadrlar yetishib chiqdi va respublikaning tarix bilan shug‘ullanuvchi muassasalarining Rossiya markazidagi ko‘p yillik sharqshunoslik tajribasiga ega bo‘lgan ilmiy tashkilotlar bilan a‘loqasi yo‘lga qo‘yildi.

Jumladan, qozoq tarixchisi J.Maxashevning ta‘kidlashicha, qozoq yerlarining Rossiya tarkibiga kiritilishiga ijobiy baho berish va joriy etish sovet tarixnavisligida birdaniga emas, balki bir necha bosqichda amalga oshirilgan. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida e‘lon qilingan bir necha asarlarda inqilobga qadar Qozog‘iston tarixini yoritishda mualliflar milliy mustamlaka zulmining og‘ir oqibatlarini haqidagi umumiy mulohazalardan nariga o‘tolmaganlar[1]. Ana shu kamchilik bu masalani o‘rganishda jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yilishiga sabab bo‘lgan. XX asr 20–30-yillaridagi tarixiy adabiyotlarda Sharq o‘lkalarining Rossiya davlati tarkibiga kiritib olinishi odatda «mutlaqo zulm» degan aqida asosida o‘rganilgan.

Qozoq tarixchisi S.D.Asfandiyorov Kichik, O‘rta va Yuqori qozoq juzlari Rossiya fuqaroligini qay yo‘sinda olganliklarini juda qiziqarli ifodalab bergan. Qozog‘istonning inqilobgacha tarixi bo‘yicha tarixiy hujjatlar asosida yozilgan birinchi umumlashtiruvchi asarida[2] Qozog‘istonning Rossiya tarkibiga “qo‘shilish” ning oqibatlarini baholashda ba‘zan ixtilofli bo‘lsa-da, ammo, o‘ziga xos talqinini beradi. Uning fikriga ko‘ra, XVIII asming 20-30-yillaridayoq, qozoq aholisining yuqori qatlami oldida ikki yo‘l turardi: «Yo o‘z hukmronligini saqlab qolish maqsadida qudratliroq qo‘shnilarga bo‘ysunish yoki bosib olinishiga qarshi turish» edi. S.D.Asfandiyorov turli guruhdagi qozoqlarning Rossiya fuqaroligini olish masalasiga qanday qaraganligini ham tadqiq etishga uringan. Bunda ikkita – feodal va savdo-feodal guruhlarini ajratib ko‘rsatadi. Muallifning fikricha, ularning birinchisi fuqarolikni qabul qilish tarafdori, ikkinchisi esa bunga qarshi bo‘lgan. Shuningdek, u «imperiya istibdodi qozoq aholisiga farovonlik, tinchlik va madaniyatni emas, balki kulfat, talon-taroj va qotilliklarni olib keldi», – deb yozadi. Qozoq tadqiqotchisi bu jarayonni “zabt etish” deb ta‘kidlash bilan bir qatorda, qozoqlarining ancha kuchli va



taraqqiy etgan Rossiya tarkibiga kiritishidan qochib qutulib bo'lmaz edi, degan xulosani chiqaradi.

M.P.Vyatkinning «Qozog'iston SSR tarixi ocherklari»[3] kitobida esa masalaga mutlaqo boshqacha yondashuvni ko'ramiz. U qozoq jamiyatida XVII asrdayoq Rossiya bilan «yaqinlashuv uchun zarurat tug'ilgan, buning uchun ob'ektiv shart-sharoitlar vujudga kelgan edi, deb hisoblaydi. XVIII asrdagi qozoq juzlarining ichki va tashqi siyosiy sharoitlarini o'zidan avvalgi tadqiqotchilarga nisbatan teranroq o'rgangan M.Vyatkin qozoqlarning Rossiya fuqaroligini olishini Qozoq yerlarining qoloq Jung'or xonliklariga tobe bo'lishiga nisbatan «kichik zulm» deb hisoblaydi, zero, bu «kelgusida taraqqiy topish yo'lini, olg'a borish yo'lini ochib berardi».

Shunday qilib, Qozog'istonda xon hokimiyati tugatilib, rus mansabdorlarining bevosita ishtirokida okrug mahkamalari tuzildi. Jumladan, 1824 yili Ayachus' va boshqo okrug mahkamalar, harbiy istehkomlari paydo bo'ldi. Rossiya mavqeining Qozog'istonda kuchayib borishi va xon hokimiyatining tugatilishi, bir tomondan ayrim qozoq xonlarining, ikkinchidan esa Qo'qon xonligining noroziligini tug'dirdi. Chunonchi sulton Qoratog' Nuraliev birinchi bo'lib bosh ko'tardi. Lekin u muvaffaqiyat qozona olmay, oxirida chor hukumati xizmatiga o'tishga majbur bo'ldi. Sirdaryoning janubiy rayonlardagi Kichik Juz qozoqlardan sulton Aringaz o'zini xon deb e'lon qildi. Sulton Aringaz islom va sha'riyatni o'zining tayanchi deb hisoblar edi. U ko'proq Buxoro amirligiga tayanishga harakat qildi. Ammo 1821 yili Peterburgga chaqirib olinib, so'ngra Kalulaga surgun qilindi va ko'p o'tmay o'sha yerda vafot etdi.

1843 yili Qozog'istonda Rossiya hukmronligiga qarshi kurashayotgan Sulton Kenesari polkovnik Bozanov boshchiligiga harbiy qism tomonidan mag'lubiyatga uchratildi va o'ldirildi. Bu Qozog'istonda rus davlati hukmronligini yanada mustahkamladi. 1845 yili To'rg'ay daryosi bo'yida Orenburg, Irgiz daryosi bo'yida esa Yoyiq harbiy istehkomlari qurildi. 1847-yili Sirdaryoning Orol dengiziga quyiladigan joyida general Obruchev boshchiligida 4839 soldat Raim qal'asini barpo etdi. 1846–1847 yillari Katta Juz qozoqlarning qolgan qismining ham rus davlati tobeligini qabul qilishi Peterburg ta'sir doirasini yanada kengaytirdi.

Qozog'iston olimlari O'rta Osiyodagi tarixchilik ilmiy dargohlari orasida birinchilardan bo'lib qozoq xalqi tarixining qadim-qadimdan to bizning davrimizgacha bo'lgan tarixi yuzasidan umumlashtiruvchi asar yaratdilar (1943)[4]. Ayni ikkinchi jahon urushi qizigan pallada «Qozog'iston SSR tarixi» ning nashr etilishi uni yaratuvchi olimlarning ilmiy jasorati edi. Shu tariqa «Qozog'iston SSR tarixi» Qozog'istonning Rossiya tarkibiga kiritib olinishi masalasini baholashda «mutlaqo zulm» konsepsiyasidan kelib chiqadi. Tabiiyki, bunday baho o'sha vaqtda kommunistik g'oyalarga va aqidalarga mos kelmaganligi boisidan partiya matbuotida qattiq tanqid ostiga olindi. 1948 yilda Almatida N.G.Aplolovanning «Qozog'istonning Rossiyaga qo'shilishi» kitobi nashr etildi. Unda Qozog'istonning Rossiyaga «o'z ixtiyori bilan «qo'shilishi» uchun mavjud bo'lgan ichki va tashqi imkoniyatlar tahlil etilib, bu jarayonning asosiy «ijobiy jihatlari»ni «ilmiy asoslashga» harakat qilingan.

1957 yilda Almatida «Qozog'iston SSR tarixi» yangi nashrining birinchi tomi bosmadan chiqdi[5]. Kitobda bu «qo'shilish»- «qozoq» jamiyatidagi iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarida yirik ijobiy o'zgarishlarga olib kelganligi va Qozog'istonda ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy topganligi haqida so'z yuritiladi.

«Qozog'iston SSR tarixi» bilan ketma-ket chiqqan H. Bekmaxanovning «Qozog'istonning Rossiyaga qo'shilishi» monografiyasida[6] «qo'shilish» muammosi uslubiy jihatdan birmuncha asosli ravishda yoritilgandek ko'rinadi. Jumladan, kitobda ta'kidlanishicha, Qozog'istonning Rossiyaga «ixtiyoriy qo'shilishi» hayotiy zarurat taqozosi bo'lib, bu jarayonning yuz berishidan «xalq ommasi, shuningdek, feodal arboblarning bir qismi manfaatdor edi.



Qozoq tarixnavisligida ta'kidlanishicha, XVIII asrdagi qozoq-rus munosabatlarini o'rganishga A.Sobirxonov sezilarli hissa qo'shgan[7]. Muallif Qozog'istonning Rossiyaga «qo'shilishini» progressiv hodisa sifatida baholar ekan, u imperiya hukumatining siyosati milliy-mustamlakachilik xususiyatiga ega bo'lganligini ko'rsatadi

1970-yillarning boshlarida e'lon qilingan tadqiqotlar qatorida T. Shoinboyevning «Qozog'istonning Rossiyaga qo'shib olinishining progressiv ahamiyati» monografiyasini ko'rsatib o'tish mumkin[8]. Tadqiqotchining asosiy xulosasi ham andozadagidek: «O'lkaning Rossiyaga qo'shib olinishi asosan XIX asr ikkinchi yarmining birinchi choragida tugallanib, Qozog'istonning Rossiyaga qo'shib olinishi chuqur iqtisodiy va siyosiy sabablar bilan, rus va qozoq mehnatkashlari o'rtasida tobora mustahkamlanib borgan birodarlashuvi bilan o'zaro bo'yalgan bo'lib, teran progressiv mohiyatga ega edi».

XIX asrning 20–30-yillaridagi tadqiqotlarda chekka o'lkalar xalqlarining Rossiya tarkibiga zo'rlik bilan kiritilishi «mutlaqo zulm» deb (T.Tochjonov, B.Fedorov kabi tarixnavislar asarlarida) talqin etiladi. J.Maxashevning «Sovet tarixnavisligida Qozog'istonning Rossiyaga qo'shib olinishining progressiv ahamiyati masalasiga doir»[9] maqolasiga o'xshash tadqiqotlarga ham bugungi kun nuqtai nazaridan ob'ektiv baho berish zarur.

XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida rus hukumatining Qozog'istondagi mustamlakachilik siyosati yanada kuchaydi. Chunonchi, u qozoq xonlarini tayinlashga va ularni sirtmoqda tutib turishga qattiq kirishdi. Okrug mahkamasi qozoqlarni idora qiluvchi ma'muriyat hisoblanib, uning to'rtta mahkama raisi bo'lgan va ularning ikkitasi gubernator tomonidan tayinlangan rus mansabdorlari, ikkitasi esa biylar va oqsoqollar tomonidan saylanadigan “faxriy” qozoqlar bo'lgan[10]. Rus hukumati qozoqlardan 100 bosh qoramoldan va 100 tuyadan bitta qoramol yoki bir tuya soliq olish tartibini joriy etgan.Yuqorida ko'rsatilgan yangi tartiblar Kichik Juzda ham amalga oshirilgan.

Qozog'iston tarixiga xolisona yondashish, ijtimoiy voqealar talqinini mantiqan bosiqlik bilan yoritish quyidagi nashrlarda ko'rish mumkin[11]. Qozog'istonda mustaqillik davriga xos yangicha uslubiy yondashish, fikr va mushohada erkinligi darslik va o'quv qo'llanmalari vazifasini bajarishi kerak bo'lgan qator kitoblarda o'z aksini topgan[12]. Ammo asrlar osha Rossiya mustamlakachilik azobini chekkan qardosh qozoq xalqi o'z qaddini bukmadi. Barcha Turkiston xalqlari kabi o'z mustaqilligi va ozodligi uchun mardonavor kurashdi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Махашев Ж.К. К вопросу о прогрессивном – значении присоединения Казахстана в русской дворянско- буржуазной и современной историографии советологов. – Алматы, 1985. - С. 19.
2. Асфандиёров С.Д. История Казахстана с древнейших времен. – Алматы, 1935. – С. 198-204.
3. Вяткин М.П. Очерки по истории Казахской ССР. – М., 1941.
4. История Казахской ССР с древнейших времен до наших дней. Под ред. М.А.Абдыкалыкова и А.Панкратовой. – Алматы: КазОГИЗ. 1943.
5. История Казахской ССР. Т.1. – Алматы, 1957.
6. Бекмаханов Е. Присоединение Казахстана к России. – М., 1957.
7. Сабырханов А. Казахстан мен Россиянин XVIII гасырдаги карым-катынастары. – Алматы, 1970
8. Шоинбаев Т. Прогрессивное значение присоединения Казахстана к России. – Алматы, 1973.





9. Махашев Ж. К. К вопросу о прогрессивном значении присоединения Казахстана к России в советской историографии // Вопросы Казахстана русской дворянской, буржуазной и современной историографии советологов. – Алматы. 1985. – С. 19-26.
10. История Казахской ССР. – Алма-Ата . 1957. - С. 303-304.
11. Абенов Е.М., Аринов Е.М., Тасмагамбетов И.Н. Казахстан. Эволюция государства и общества. – Алматы. 1996.
12. История Казахстана с древнейших времен до конца XVIII века (Практикум-учебное пособие). – Алматы. 1992;

